

16-dars

Darsning mavzusi: Ma'nodosh so'zlar

Darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilarga ma'nodosh so'zlarni o'rgatish; so'zlarga so'roq bera olish ko'nikmasini o'stirish; talaffuz me'yorlariga rioya qila olish, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish;

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni tabiat in'omlarini asrab-avaylash ruhida tarbiyalash; o'z fikrini boshqa manbalarga tayangan holda asoslay olish ko'nikmasini shakllantirish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunib, o'zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish, kattalarga, kichiklarga va o'rtoqlariga yordam berish;

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: o'quvchilarning eshitish idrokini rivojlantirish; talaffuz me'yorlariga, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish.

Darsning turi: mustahkamlovchi dars

Darsning metodi: suhbat, mustaqil ish metodi, "Moslashtirish" va "Bilag'on" ta'limiy o'yini.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, so'zlar yozilgan kartochkalar, multimedia ilovalari.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism:

- salomlashish; navbatchi axboroti; kun, oy, yil yangiliklari.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi

Kichik "g" harfi ikki unsurdan, birinchi unsur to'liq oval, ikkinchi unsur osti halqali uzun tayoqchadan iborat.

Daftarga bir qator kichik "g" harfini va shu harf bilan bog'langan so'zlarni yozadilar: gul, gilam, gugurt, ganch.

Uy vazifasi 72-mashqda berilgan topshiriqlar tekshiriladi.

- Davlat ramzlarini sanang.
- Mustaqillik deganda nimani tushunasiz?

III. Mustahkamlash.

Darslikda berilgan 73-mashq bajariladi. Ikki ustundagi ma'nodosh so'zlar topiladi va juftlab ko'chiriladi.

"Moslashtirish" metodi

Barg-yaproq, uchmoq-parvoz qilmoq, katta-ulkan, urush-jang, befarq-farqsiz, yorug'-ravshan, yordamchi-ko'makchi.

Darslikda taqdim etilgan 74-mashq "Bilag'on" ta'limiy o'yini orqali bajariladi. Tasvirlarning nomlariga ma'nodosh so'zlar topib yozing.

Daraxt shoxi-novda, chehra-yuz, osh-palov, ot-tulpor, ekin-ko'chat.

75-mashq. Test topshirig'i bajariladi.

1. Ma'nodosh so'zlar berilgan qatorni toping?

A) yaxshi, yomon

B) hidi, isi

C) o'rta, orqa

D) kuz, ko'z

2. Osmon, samo, falak so'zlarining ma'no turini toping.

A) ma'nodosh so'zlar

B) shakldosh so'zlar

C) zid ma'noli so'zlar

D) B va C javoblar to'g'ri

3. Qaysi qatorda ma'nodosh so'zlar berilgan.

A) qizil, yashil

B) katta, kichik

C) yemoq, ichmoq

D) ulg'aydi, katta bo'ldi

IV. Darsga yakun yasash va baholash

O'quvchilarning darsdagi ishtiroki va ijodkorligi, guruhlardagi faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasiga ko'ra o'qituvchi tomonidan baholab boriladi. Dars yakunida umumiy baholar e'lon qilinadi va faol, bilimdon o'quvchilar rag'batlantiriladi.

V. Uyga vazifa berish.

76-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.